



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

By addressing these areas, future systems can become even more adaptive, comprehensive, and impactful in supporting learners to achieve native-like pronunciation in foreign languages.

References:

1. Derwing, T. M., & Munro, M. J. (2015). *Pronunciation Fundamentals: Evidence-based Perspectives for L2 Teaching and Research*. John Benjamins Publishing.
2. Eskenazi, M. (2009). An overview of spoken language technology for education. *Speech Communication*, 51(10), 832–844.
3. Godwin-Jones, R. (2018). Emerging technologies: Using mobile devices in language learning. *Language Learning & Technology*, 22(3), 2–11.
4. Isaacs, T., & Trofimovich, P. (2017). *Second Language Pronunciation Assessment: Interdisciplinary Perspectives*. Multilingual Matters.
5. Levis, J. (2018). *Intelligibility, Oral Communication, and the Teaching of Pronunciation*. Cambridge University Press.
6. Moyer, A. (2013). *Foreign Accent: The Phenomenon of Non-native Speech*. Cambridge University Press.
7. Neri, A., Cucchiaroni, C., & Strik, H. (2006). ASR-based corrective feedback on pronunciation: Does it really work? *Computer Assisted Language Learning*, 19(5), 543–576.
8. Thomson, R. I., & Derwing, T. M. (2016). The effectiveness of L2 pronunciation instruction: A narrative review. *Applied Linguistics*, 36(3), 326–344.
9. Zhang, Y., Pan, W., & Yan, Y. (2020). Automatic pronunciation assessment for computer-assisted language learning: A survey. *Speech Communication*, 115, 1–16.

INGLIZ VA O‘ZBEK ERTAKLARIDAGI HAYVONLAR OBRAZINING O‘RGANILISHI

Teshaboyeva Nafisa Zubaydulla qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
nafisateshaboyeva@jbnuu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek ertaklarida hayvonlar obrazining shakllanishi, folkloristik ildizlari hamda ularning ramziy, poetik va didaktik funksiyalari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida hayvon timsollari antropomorfizm, totemizm va mifologik qarashlar bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Shuningdek, ularning ijtimoiy va psixologik konfliktlarni ifodalashdagi roli, bolalar tarbiyasidagi didaktik vazifasi hamda gender stereotiplari va madaniy kodlarni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Ingliz ertaklarida uchraydigan hayvon obrazlari nemis, fransuz va slavyan folklori bilan qiyoslangan va ularning universalligi hamda madaniy moslashuvchanligi aniqlangan. Xususan, bo‘ri, tulki, ayiq, quyon kabi obrazlar orqali jamiyatning axloqiy qadriyatlari, qo‘rquvlari va orzu–umidlari badiiy

shaklda ifodalangan. Maqolada hayvon obrazlarining adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya va gender tadqiqotlari nuqtai nazaridan dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ingliz ertaklari, o'zbek ertaklari, hayvon obrazi, folklor, antropomorfizm, totemizm, ramz, didaktika, psixologik konflikt, gender stereotipi, madaniy kod.

Ingliz ertaklaridagi hayvonlar obrazining tahlili xalq og'zaki ijodining chuqur qatlamlariga borib taqaladi. Ushbu obrazlar ertaklarda insoniyatning axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy me'yorlari, psixologik holatlari va madaniy arketiplari bilan bog'liq holda shakllangan. Hayvonlar timsoli orqali xalq ongida mavjud bo'lgan tasavvurlar, qo'rquvlar, istaklar va umidlar aks ettiriladi. Ushbu bo'limda ingliz ertaklarida hayvon obrazlarining genezisi, ularning poetik funksiyalari, ramziy talqini va olimlarning bu haqdagi qarashlari chuqur o'rganiladi.

Hayvon obrazlarining folkloristik ildizlari. Antropomorfizm — hayvonlarni insoniy fazilatlar bilan ta'minlash — bu obrazlarning asosiy xususiyatlaridan biridir. Hayvonlar gapiradi, fikr yuritadi, muomala qiladi, hatto siyosiy va axloqiy bahs-munozaralarda ishtirok etadi. Bu orqali ularning ramziy yuki yanada chuqurlashadi. Hayvon obrazlarining folkloristik ildizlari chuqur tarixiy, diniy va antropologik asoslarga ega bo'lib, ular xalq ertaklarida arxaik dunyoqarashlarning ifodasi sifatida xizmat qiladi. Deyarli barcha madaniyatlardagi ertaklarda hayvonlar ramziy timsollar sifatida ishtirok etadi va ular insoniyatning qadimiy e'tiqodlari, atrof-muhit bilan bo'lgan munosabatlari, hamda axloqiy-ijtimoiy qadriyatlari bilan bevosita bog'liq. Ingliz xalq ertaklaridagi hayvon obrazlari asosan keltlar, anglo-saksonlar va normanlarning og'zaki ijodi asosida shakllangan. Totemizm, animizm va mifologik rivoyatlar bu obrazlarning vujudga kelishida asosiy manba bo'lgan. Misol uchun, qadimgi kelt mifologiyasida bo'ri, ayiq, qush, tulki kabi hayvonlar urug'lar va urug'boshi ajdodlarining himoyachisi sifatida qaralgan. Totemistik e'tiqodga ko'ra, har bir urug' o'z hayvonini hurmat qilgan, uni ovlamagan va unga sig'ingan. Ingliz ertaklarida ayniqsa antropomorf hayvonlar (ya'ni, insoniy qobiliyatlar bilan ta'minlangan hayvonlar) juda ko'p uchraydi. Ular insoniy muammolarni hal qiladi, axloqiy qarorlar qabul qiladi va ijtimoiy rollarni egallaydi. Vladimir Propp bu holatni folklorning morfologik tizimi orqali tahlil qilib, hayvon obrazlarining syujetdagi rollarini aniq belgilaydi: "Hayvon obrazlari ko'pincha yordamchi, sinovchi yoki sinovdan o'tkazuvchi kuch sifatida xizmat qiladi" (Propp, *Morphology of the Folktale*, 1928). Folklorshunos Walter J. Ong ham og'zaki madaniyatlarda hayvon obrazlarining asosiy belgilaridan biri bu — ularning kollektiv xotirada tarixiy va axloqiy saboqlarni saqlovchi vosita ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha: "Hayvonlar obrazi — bu og'zaki tafakkurning jonli tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali jamiyat o'z tarixini va axloqini saqlaydi" (Ong, *Orality and Literacy*, 1982, p. 36). Ingliz ertaklarini boshqa Yevropa xalqlari, xususan, nemis, fransuz va slavyan ertaklari bilan qiyoslaganda, hayvon obrazlarining universalligi va madaniy moslashuvchanligini ko'rish mumkin. Masalan, Grimm birodarlar tomonidan to'plangan nemis ertaklarida bo'ri, tulki, ayiq kabi hayvonlar ko'p uchraydi va ularning rollari ingliz ertaklaridagi vazifalarga o'xshash: ular sinovchi, aldamchi, yordamchi yoki jazolovchi sifatida ishtirok etadi. Jack Zipes

bu borada yozadi: “Although cultural contexts differ, animal figures in European folktales consistently perform symbolic functions tied to moral instruction and communal identity” (Zipes, *Why Fairy Tales Stick*, 2006, p. 22). Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hayvon obrazlari turli xalqlarda har xil estetik va axloqiy maqsadlar bilan xizmat qilsa-da, ularning asosiy folkloristik ildizlari umumiy arxaik mifologiyaga borib taqaladi. Slavyan xalqlari ertaklarida ayiq donishmand va kuchli obrazda, tulki esa makkor va hiylakor obrazda tasvirlanadi. Ingliz ertaklarida ham tulki aynan shu sifatlarga ega. Bu holat hayvon obrazlarining xalq ongida shakllangan kollektiv stereotiplar asosida yaratilganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, hayvon obrazlarining folkloristik ildizlari qadimiy totemistik va mifologik e’tiqodlardan oziqlangan bo‘lib, ular zamonaviy ertaklarda ramziy, didaktik, va poetik funksiyalarni bajaradi. Ushbu obrazlar insoniyatning madaniy merosi sifatida xalq xotirasida saqlanib kelmoqda. Ingliz ertaklarida hayvon obrazlari xalq og‘zaki ijodining arxaik qatlamlaridan kelib chiqqan bo‘lib, ular ko‘pincha totemistik va mifologik asosga ega. Ular insoniyat tarixida tabiat bilan munosabatlar, biologik muvofiqlik, hamda ijtimoiy tuzumlar bilan chambarchas bog‘liq. Alan Dundesning fikricha: “Folktales often use animal figures to express conflict and resolution in ways that human characters cannot” (Dundes, 1980, *Interpreting Folklore*, p. 45).

Ingliz ertaklarida hayvon obrazlarining didaktik vazifasi: Ingliz xalq ertaklarida hayvonlar obrazining eng muhim funksiyalaridan biri — bu ularning didaktik (tarbiyaviy) vazifasidir. Hayvonlar ko‘pincha ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, va harakatlar oqibatini namoyon qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ular yordamida bolalar va yosh avlodga halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, xushyorlik, yolg‘on va hiyladan yiroq bo‘lish, ijobiy fe’l-atvor kabi qadriyatlar singdiriladi. Ushbu obrazlarning tarbiyaviy salohiyati folklor janrining universal xususiyatlaridan biridir. Hayvonlar orqali voqealarni ifodalash — bu ko‘pincha og‘zaki adabiyotda axloqiy saboq berishning eng samarali usullaridan biri bo‘lib kelgan. Jack Zipes bu haqda shunday deydi: “In fairy tales, animals are not merely decorative — they are pedagogical figures that help inculcate values and regulate behavior” (Zipes, *Fairy Tales and the Art of Subversion*, 2006, p. 63). Ko‘plab mashhur ingliz ertaklarida bu yondashuv yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, “The Three Little Pigs” (Uchta kichik cho‘chqa) ertagida har bir cho‘chqacha turli materialdan uy quradi. Faqatgina mehnatsevar va aqlli cho‘chqacha mustahkam uy quradi va bo‘rining hujumidan omon qoladi. Bu orqali ertakda mehnat, mas’uliyat, va puxta rejalashtirishning muhimligi targ‘ib qilinadi. Yana bir misol — “The Ant and the Grasshopper” (Chumoli va Chigirtka) masali. Bu asarda chumoli mehnatsevarlik timsoli, chigirtka esa dangasalik ramzi sifatida tasvirlanadi. Qish kelganda chumoli tayyor bo‘ladi, chigirtka esa qiynaladi. Ushbu syujetlar bolalar ongida sabab–va–oqibat bog‘liqligini shakllantirishda xizmat qiladi. Bruno Bettelheim bu turdagi didaktik ertaklar haqida shunday deydi: “Children do not understand abstract moral principles, but they respond to stories. Animal figures in tales enable the child to externalize inner conflicts and observe moral dilemmas at a safe distance” (Bettelheim, *The Uses of Enchantment*, 1976, p. 58). Didaktik yondashuv faqatgina axloqiy tushunchalarni singdirish bilan cheklanmaydi. Hayvonlar yordamida jamiyatdagi ijtimoiy rollar, tengsizlik, hamkorlik, va empatiya kabi mavzular ham yoritiladi. Masalan, “The Town Mouse and

the Country Mouse” (Shahar sichqoni va Qishloq sichqoni) ertagida ikki turmush tarzining solishtiruvchi didaktikasi orqali farovonlik va xavfsizlikning turli shakllari ko‘rsatiladi. Walter J. Ong didaktik ertaklarning og‘zaki madaniyatdagi rolini ta’riflab shunday yozadi: “Folktales embed moral lessons in narrative structure, and animals are the ideal agents through which listeners identify with conflicts and resolutions” (Ong, *Orality and Literacy*, 1982, p. 39). Boshqa Yevropa xalqlari bilan qiyoslaganda, ingliz ertaklarida hayvonlar orqali beriladigan axloqiy saboqlar ancha murakkab va ko‘p qirrali bo‘lishi mumkin. Hayvonlar orqali ijtimoiy va psixologik konfliktlarni ifodalash. Bruno Bettelheim o‘zining mashhur asari *The Uses of Enchantment* (1976)da ertaklardagi hayvonlar obrazlarini bola psixologiyasini anglash vositasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, yovvoyi hayvonlar — ayniqsa bo‘ri, ayiq, tulki — bola ongidagi nazoratdan chiqqan his–tuyg‘ular, istaklar yoki qo‘rquvlarning timsolidir. "The animal is a figure of the unknown within, an instinct repressed but lurking" (Bettelheim, 1976, p. 81). Ingliz ertaklarida hayvonlar ko‘pincha ijtimoiy ziddiyatlar va psixologik muammolarning timsoli sifatida xizmat qiladi. Bu obrazlar insoniyat ongining chuqur qatlamlariga singib ketgan arxetiplar orqali jamiyatdagi muhim masalalarni ko‘rsatish vositasi sifatida ishlatiladi. Ular orqali insonlar orasidagi to‘qnashuvlar, jamiyatdagi tengsizlik, axloqiy dilemma va ichki ruhiy nizolar ifodalanadi. Bruno Bettelheim o‘zining “The Uses of Enchantment” (1976) nomli mashhur asarida aytadi: “Ertaklardagi hayvon obrazlari bolaga o‘z ichki dunyosidagi qarama–qarshi istaklar va his–tuyg‘ularni xavfsiz tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa bo‘ri, ayiq va tulki singari yirtqich hayvonlar, bolaning nazorat qilinmagan, shafqatsiz istaklari yoki qo‘rquvlarini ifodalaydi” (Bettelheim, 1976, p. 74). Masalan, “Little Red Riding Hood” (Qizil qalpoqcha) ertagida bo‘ri nafaqat fizik tahdidni, balki ijtimoiy normani buzish, taqiqlangan hududga kirish, va ayol inoyatining buzilishi bilan bog‘liq psixologik qo‘rquvni ifodalaydi. Bo‘rining yolg‘on, hiyla va zo‘ravonlik orqali o‘z maqsadiga erishishi — bolalar ongida yovuzlikning yashirin shakllarini anglatadi. Jack Zipes ham hayvonlar orqali ifodalangan konfliktlarni ijtimoiy va ideologik nuqtai nazardan tahlil qiladi. U yozadi: “Fairy tale animals often represent societal norms under threat — a disguised conflict between individual desires and collective expectations” (Zipes, *The Irresistible Fairy Tale*, 2012, p. 91). Ijtimoiy tengsizlik, zo‘ravonlik, jamiyatda erkak va ayol rollarining muvozanatsizligi kabi muammolar ham hayvonlar timsolida ko‘rsatiladi. Masalan, “The Wolf and the Lamb” (Bo‘ri va Qo‘zi) masalida bo‘ri kuch va zo‘ravonlikni, qo‘zi esa begunohlik va zaiflikni bildiradi. Bu konflikt orqali kuchli va kuchsizlar o‘rtasidagi ijtimoiy adolatsizlik tasvirlanadi. Marina Warner hayvon obrazlarini madaniy kod sifatida tahlil qilib, shunday deydi: “Hayvonlar orqali ayollarga nisbatan tahdid, ijtimoiy intizom, va patriarxal nazoratlar ertaklar kontekstida beriladi. Bu obrazlar orqali jamiyat o‘z nazorat tizimini bolaga singdiradi” (Warner, *From the Beast to the Blonde*, 1994, p. 49). Shuningdek, hayvonlar obrazlari psixologik o‘rish jarayonining ramzi ham bo‘lib xizmat qiladi. Bola hayvonlar bilan bo‘lgan to‘qnashuv orqali ichki qarama–qarshiliklarini anglaydi va ulardan o‘rib chiqadi. Masalan, “The Tale of Peter Rabbit” (Beatrix Potter tomonidan yozilgan) ertagida qahramon bo‘lgan quyoncha o‘zining betartibliги va jazoga munosabatini boshdan kechiradi. Bu orqali bola jazoni tushunish, irodasini nazorat qilish va ijtimoiy tartibga moslashishni o‘rganadi. Xulosa qilib

aytganda, ingliz ertaklaridagi hayvonlar orqali beriladigan ijtimoiy va psixologik konfliktlar nafaqat tarbiyaviy, balki tahliliy hamda davolovchi vazifani ham bajaradi. Bu obrazlar yordamida bolalar murakkab hayotiy holatlarni obrazli ravishda tushunishadi, ichki his-tuyg'ularini ifoda qilish imkonini topadilar, va jamiyatdagi ijtimoiy muvozanat haqida tasavvur hosil qiladilar.

Madaniy kodlar va gender stereotiplari. Marina Warner hayvon obrazlarining gender kodlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Uning fikricha, hayvonlar ko'pincha patriarxal ijtimoiy tuzumda ayollarni nazorat qilish vositasiga aylanadi. Masalan, "Little Red Riding Hood" ertagida bo'ri obrazida erkaklarning xatarli, tahdidli kuchi aks ettiriladi. Warner yozadi: "The wolf represents both seduction and threat — a duality of male power perceived through the lens of fairy tale morality" (Warner, *From the Beast to the Blonde*, 1994, p. 105). Ingliz ertaklarida hayvon obrazlari ko'pincha madaniy kodlar va gender stereotiplarni ifodalovchi vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu obrazlar orqali jamiyatda mavjud bo'lgan gender rollari, ijtimoiy intizom, va erkak-ayol munosabatlari haqida tasavvurlar bolalar ongiga singdiriladi. Hayvonlar, ayniqsa yirtqichlar, ayollar uchun mavjud xavf-xatarning ramzi sifatida ishlatiladi, bu esa patriarxal jamiyatda hukmron bo'lgan gender nazorat tizimlarini mustahkamlaydi. Folklorshunos Marina Warner bu holatni batafsil tahlil qiladi. U yozadi: "Ertaklardagi hayvonlar ayniqsa yirtqichlar — bo'ri, ayiq, arslon — ko'pincha erkak kuchi, nazorati va tahdidi bilan bog'liq tarzda talqin qilinadi. Ayniqsa, ayol obrazlarida bo'ri ko'pincha vasvasa va xavf o'rtasidagi muvozanatsizlikni ifodalaydi" (Warner, *From the Beast to the Blonde*, 1994, p. 105). Masalan, "Little Red Riding Hood" (Qizil qalpoqcha) ertagida bo'ri — erkak kuchining timsoli bo'lib, u ayolga (yoki yosh qizga) nisbatan tahdid, zo'ravonlik va vasvasani ifodalaydi. Bu ertak orqali yosh qizlarga "yo'l-yo'riqdan chiqmaslik", "begona bilan gaplashmaslik" singari xatti-harakatlar tavsiya qilinadi, bu esa patriarxal qadriyatlarning singdirilishi sifatida ko'riladi. Gender stereotiplari nafaqat qizlar, balki o'g'il bolalarga nisbatan ham ifodalanadi. Masalan, "The Three Little Pigs" ertagida mustahkam uy qurgan cho'chqacha — mehnatkash, aql-idrokli va mas'uliyatli erkak modeli sifatida talqin qilinadi, bu orqali o'g'il bolalarga kuchli va mustahkam bo'lish, mas'uliyatni zimmasiga olish g'oyalari singdiriladi. Jack Zipes gender stereotiplari haqida quyidagicha yozadi: "Fairy tale animals reflect and enforce traditional roles assigned to men and women in society. These roles are not natural, but constructed through repeated narrative structures" (Zipes, *Breaking the Magic Spell*, 1979, p. 88).

Ingliz ertaklaridagi hayvonlar obrazlari — bu xalq ongining ramziy, madaniy va psixologik aksidir. Ushbu obrazlar xalqning qadimiy dunyoqarashi, e'tiqodlari, axloqiy normalari va ijtimoiy munosabatlarini o'zida mujassam etgan. Hayvonlar timsoli orqali jamiyat o'zining tarixiy tajribasini, axloqiy qadriyatlarini va madaniy stereotiplarini badiiy shaklda ifodalagan. Hayvon obrazlari bir vaqtning o'zida folkloristik, didaktik, psixologik, poetik va gender funksiyalarni bajaradi. Ular og'zaki madaniyatdan boshlab yozma adabiyotgacha bo'lgan jarayonda takomillashgan va o'zgarib borgan. Ayniqsa, zamonaviy davrda hayvon obrazlari ijtimoiy muammolar, ekologik ong va madaniy xilma-xillikni yoritishning samarali badiiy vositasiga aylangan. Shuningdek, bo'ri obrazi misolida ko'rganimizdek, hayvonlar orqali ko'plab ramziy qatlamlar ochiladi: ular qo'rquv, vasvasa, donolik, sinov, va o'sish timsollarini ifodalaydi.

Zamonlar o'tishi bilan bu obrazlarning talqini kengaygan va murakkablashgan, ammo ularning mohiyati — inson tabiatini badiiy shaklda anglash vositasi sifatida — o'zgarmay qolgan. Shu bois, ingliz ertaklarida hayvon obrazlarini chuqur ilmiy asosda o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixologiya, antropologiya va gender tadqiqotlari sohalarida ham dolzarb va sermahsul yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Afzalov M.I. O'zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: Fan, 1964. – 86 b.
2. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 238 b.
3. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. – Toshkent: Fan, 1976. – 155 b.
4. Jo'raev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2009. – 192 b.
5. Jo'raev M., Rasulova Z. Mif, marosim va ertak. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2014. – 308 b.
6. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990 – 304 b.
7. Imomov K. Ertak // O'zbek folklori ocherklari. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1989. – B.69-70.
8. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 252 b.
9. Musaqlulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 308 b.
10. Nurmurodov Y. O'zbek folklori nemis tilida. – T.: Fan, 1987 – 58 b.
11. Rahmonova M. O'zbek xalq afsonalarining badiiyati. – T.: Fan, 2009. – 136 b.
12. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: Musiqqa, 2010. – 368 b.
13. Shaniyazov K.K. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. – Tashkent: Fan, 1974. – 342 s.
14. Shomusarov Sh. Arab va o'zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. – T.: Fan, 2002. – 380 b.

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDAGI AYRIM SIFAT SO‘Z TURKUMIGA OID SO‘ZLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATI

DSc, prof. Solnyshkina Marina Ivanovna

Qozon Federal universiteti, Rossiya

Buronova Xolida Toshtemirovna

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi turkiy til manbasi hisoblangan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi sifatlar ma'nosiga, tub va yasamaligiga hamda darajalanish xususiyatiga ko'ra tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qadimgi turkiy til, sifat, xususiyat, rang-tus, maza-ta'm, hajm-o'lchov, tub, yasama, daraja, orttirma daraja, qiyosiy daraja.